



Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida ma'naviy ideallar asosida pedagogik kompetentligini takomillashtirish

Saydullayeva Aziza Raximovna –
Farg'ona davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: azizasaydulayeva13@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5829-3078>

Annotatsiya. Ushbu maqolada e'tibor ideal tushunchasining inson tafakkuridagi namuna, mukammallik timsoli va me'yor sifatidagi mohiyatini ochishga qaratilgan. Unda axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning mazmun-mohiyati hamda ularning shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida ma'naviy ideallar negizida pedagogik kompetentligini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetentlik, kasbiy shakllanish, ehtiyoj, komil inson, tarbiya metodikasi, rahnamo, tashabbus, qonun, manfaat.

Совершенствование педагогической компетентности будущих учителей на основе духовных идеалов в процессе профессионального становления

Аннотация. В данной статье внимание уделено раскрытию сущности понятия идеала как образца, символа совершенства и нормы в человеческом мышлении. Анализируются содержание и значение нравственных, религиозных, социально-политических и эстетических идеалов, а также их роль в духовно-нравственном развитии личности. На этой основе освещены теоретические и практические аспекты совершенствования педагогической компетентности будущих учителей на основе духовных идеалов в процессе их профессионального становления.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, профессиональное становление, потребность, совершенный человек, методика воспитания, наставник, инициатива, закон, интерес.

Improving the pedagogical competence of future teachers based on spiritual ideals in the process of professional formation

Annotation. This article focuses on revealing the essence of the concept of the ideal as a model, symbol of perfection, and standard in human thought. It analyzes the meaning and significance of moral, religious, socio-political, and aesthetic ideals, as well as their role in the spiritual and moral development of the individual. Based on this, the theoretical and practical aspects of improving the pedagogical competence of future teachers through spiritual ideals in the process of their professional formation are highlighted.

Keywords: pedagogical competence, professional formation, need, perfect person, educational methodology, mentor, initiative, law, interest.

KIRISH

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida milliy tarbiya metodikasini modernizatsiyalashga doir bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda komil insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy ideallarini tarbiyalash mazmunini, o'qitish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan yangicha dunyoqarashini shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ideal inson tafakkuridagi namuna, mukammalilik timsoli, normasi, axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning ichki xususiyatlari tahlili yoki ideallar belgilari orqali umumiylikdan xususiylikni ifodalashga harakat qilinadi. Shuning uchun ta'riflar barcha ideallarga xos xususiyatlarni qamrab olmagan yoki ayrimideal shakllari bilan chegaralanib qolgan. Ideal sezgi, idrok, konsepsiya, mulohaza, xulosa kabi inson bilishining shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ideal har doim ham mavjud bo'lgan narsaning aksi bo'lib emas, balki u haqiqatda mavjud bo'lgan, ammo hali ham universallikka erishmagan hodisani aks ettirishi mumkin bo'lgan narsa-hodisani aks ettiradi. Ideal nima bo'lishi, qanday bo'lishini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ideal tushunchasining ma'no va mazmuniga doir yuqoridagi ta'riflar bir-birini to'ldiradi, biroq, bu ta'riflar bizning nazarimizda, idealni eng yuksak va olijanob maqsad, orzu va tilak sifatida idrok etish masalasimohiyatini cheklab qo'yadi. Chunki ideal faqat maqsad, orzu va tilakdan iborat emas. Agar maqsad, orzu va tilak ideal sifatida olinsa, idealning umummillat miqyosida yoki shaxs uchun mushtaraklik jihati fikran chetda qoladi. XX asrning oxiridagi tadqiqotlardan bo'lgan A.Lizogubning "Ideal" deb nomlanuvchi asarida insoniyatning ming yillar davomida shakllangan "Mutloq maqsadiini

kvintessensiyasiga ko'ra uchta asosiy element vujudga keltirgan deb ko'rsatiladi: 1) shaxs va jamiyatning umrboqiyli; 2) cheksiz qudratga ega bo'lish, ya'ni dunyoni o'zlashtirish uchun shaxs va jamiyatning cheksiz qobiliyatlari; 3) cheksiz baxt, moddiy huzur-halovatga ega bo'lish". Ushbu muallif ideal tushunchasining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rnini o'z davrining mafkurasi nuqtai-nazaridan urib baholagan bo'lib, insonning mutlaq maqsadi insonning baxt singari psixologik tushunchalari orqali bunga oydinlik kiritgan.

Mamlakatimizda ham idealning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik jihatlarini ilmiy tahlil qilish, idealning milliy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, S.S.Agzamxodjayevaning tadqiqotida "ideal" va "ijtimoiy ideal" tushunchalari o'rtasida ma'lum bir farqlar mavjud. Bu farqlar idellarning mohiyatida emas, balki o'zgarishlari va shakllaridadir, deb ko'rsatiladi. Biz bu fikrni rivojlantirib, mazkur farqlar ideallarning mohiyatida ham, ko'rinish va shakllarida ham namoyon bo'ladi, degan fikrdamiz. Negaki, agar ideal tushunchasi maqsad (hayotiy maqsad), ixlos, o'y, xayol, intuitsiya, fantaziya, utopiya, bashorat kabi tushunchalar bilan ham bog'liqligini inobatga olsak, yuqoridagi tushunchalar barcha ideal shakllariga mos kelmasligi mumkin.

Ideal – inson ongida kelajak haqidagi tasavvuri, obrazi, modelidir. Shuning uchun har qanday ideal kelajakka yo'naltirilgan, kelajakdagi hayotni, jamiyatni, tuzumni gipotetik tasavvur etishdir. Yuqoridagi yo'nalishlarda har doim ham "ideal" tushunchalari ishlatilavermaydi, biroq ular negizida kelajakdagi hayot, jamiyat, tuzum gipotetik nazarda tutiladi. Aynan shu nuqtai nazardan ular ijtimoiy idealning yo'nalishlaridir, - deb yozadi olim S.S.Agzamxodjayeva o'z ilmiy tadqiqotida. Demakki, Agzamxodjayevaning bu fikri ijtimoiy idealda shaxsning jamiyatga xizmat qilishi, jamoa manfaatlarini shaxsiy manafatlardan ustun qo'yishi zarurligini ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida ma'naviy ideallar negizida pedagogik kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan konseptual yondashuvni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar asos qilib olingan. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchining ichki ehtiyojlari, qadriyatlar va ma'naviy ideallari kasbiy shakllanishning asosiy omili sifatida o'rganiladi. Aksiologik yondashuv esa ma'naviy ideallarni inson kamoloti va kasbiy barkamollik mezoni sifatida baholashga imkon beradi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan.

Tizimli yondashuv asosida pedagogik kompetentlikni shakllantirish jarayoni o'zaro bog'liq bosqichlar, tarkibiy qismlar va mexanizmlar birligi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot metodlari sifatida tahlil va sintez, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, hamda nazariy modellashirish usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida ma'naviy idealga mualliflik tarifimizni ishlab chiqidik.

Ma'naviy ideal – bu insonning axloqiy, estetik va ruhiy barkamollikni tasavvur qilishi hamda unga intilish jarayonida shakllanuvchi yuqori darajadagi qadriyatlar va yo'nalishlar tizimi. Ma'naviy ideal shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan, uning axloqiy meyorlari va intilishlarini boshqaruvchi ichki ko'rsatkich bo'lib, jamiyatning madaniy-tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun - Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun -

Saydullayeva Aziza Raximovna

hazrati Iso, yahudiy dinidagilar uchun - hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy va tarixiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin - eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilinardi. Hozir esa "Kuch - adolatda!" degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan tarixiy ideal, adolatli davlat rahbarining namunaviy timsoli tarzida qabul qilinadi.

Shunday ekan, ma'naviy ideal – ijtimoiy ma'noda insonning, turli ijtimoiy guruhlarining maqsadi, qadriyatlari hamda emotsional holatidan kelib chiqqan holda hayotga nisbatan aniq va mavhum munosabatda bo'lishi demakdir. Uning aniq xususiyati o'tmish va hozirgi kunga tegishli bo'lsa, mavhum holati ko'proq kelajakka yo'naltirilgan g'oyalarda o'z ifodasini topadi.

Fikrimizcha, olib borilgan tadqiqotlarda ma'naviy idealning irratsional hamda emotsional xususiyatlari ifodalangan. Zero, ba'zi hollarda ma'naviy ideal belgilari hayotda real mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Ya'ni, u hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti – o'tgan zamon bilan belgilanadi. Shunday qilib, kishilarning ma'naviy idealga bo'lgan intilishi ularning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidan ham iborat deb qaraladi. O'z navbatida mazkur xatti-harakat uchun namunani ular kelajakdan topolmaydilar, chunki bu murakkab voqealikdagi ibrat tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi. Jamiyat miqyosida idealning reallashuvi innovatsion yondoshuvni vujudga keltiradi. Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish. U quyidagi holatlarni o'z ichiga qamrab oladi: yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

Ma'naviy ideallar o'z oldiga qo'ygan yurti obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Zero, bunday ideallar xalqimizga ota-bobolaridan meros. Ma'naviy ideal har bir xalqqa xos bo'lgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar hamda turli bilimlarni o'zida ifoda etishi bilan ham ajralib turadi. Hozirgi kunda aksariyat millat vakillari o'z millati erkinligi hissini yo'qotish chegarasidan asta-sekin chiqib kelmoqda. Har bir millatning o'zi belgilab olgan hayotiy rejalari, jamiyat taraqqiyoti istiqbollari belgilashi aqlning shunchalik quruq o'yini emas. Zero, yuksak asosga ega bo'lgan milliy maqsadlar, millat hayotini saqlab turadi. Chunki, har bir millat vakili o'z hayotlarini ana shu milliy maqsadlar va ideallarga moslab, muvofiqlashtirib yashaydi. Demak, ma'naviy idealning g'oyaviy manbalari, o'lchamlari va kichik tizimlar xarakteristikasidan kelib chiqadi. Biroq, ma'naviy ideal va reallikning bunday manbalari, o'lchamlari yoki kichik tizimlari xarakteristikasini tahlil qilishda, ularning o'zaro munosabatlarida turli xil murakkabliklar yotadi.

Ta'lim muassasalari uchun chiqarilgan "Ideal yapon yigit -qizining fazilatlarini" deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 fazilatni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. 16 fazilat 4 guruhga bo'lingan. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o'ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo'lish, o'z xohishlarini idora qila olish, piyaset (ehtirof) tuyg'usiga egalik; 2) oila boshlig'iga xos sifatlar: o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o'z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlar: vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lishni o'rgatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, ideal qaysi zamon, qaysi jamiyat, qaysi millat tafakkurida shakllangan bo'lmasin, u albatta, murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida shaxs ongi va ruhiyatida ijtimoiy hayotiy tajriba va ehtiyojlarining o'ziga xos invariant

shakli sifatida qaror topadi. U shaxsning qobiliyat va salohiyati, hayot tarzi, oilaviy an'ana, diniy rasm-rusumlar, badiiy-estetik tajriba va ehtiyojlari ramzi, uning hissiy va intellektual taraqqiyot darajasi, faoliyat turlari, muloqot va munosabatlari xarakteri, o'tmish va o'z davridagi ibratli shaxslar timsoli va hokazo omillar ta'sirida shakllangan. Ideal individual qiyofa, namuna, obraz tarzida har bir inson qalbi va ongida shakllanadi. Uning tarbiyaviy mohiyati shundan iboratki, u har bir shaxsga tabiat, jamiyat va insonga nisbatan shaxsiy munosabatlarni oldindan belgilashga va shunga yarasha ijodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi o'z tafakkur va faoliyat yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Ideal kimda va qaysi shakldabo'lishidan qat'iy nazar optimistik xarakterga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2023. –B. 112.
2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi”. - Toshkent.: 2019.–B. 12.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017-yil 28-iyul.
4. Н.А.Муслимов Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. –128 б.
5. Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. –T.: TURON-IQBOL, 2006. –352 b.
6. E.G'oziev Umumiy psixologiya. –T.: O'qituvchi, 2010. – 410 b.
7. O.Hasanboeva, N.Rahmonqulova Pedagogika. –T.: Fan va texnologiya, 2016. –240 b.
8. J.G'.Yo'ldoshev, S.Asmonov Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2015. –284 b.
9. N.To'raqulova Ma'naviyat asoslari va tarbiya metodikasi. – T.: TDPU, 2020. – 198 b.
10. Z.Nishonova Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari. – T.: TDPU, 2021. – 156 b.